

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARINING KUNDALIK TA'LIMIY
FAOLIYATI DAVOMIDA MILLIY QADRIYAT TUSHUNCHALARINI BOLA
ONGIGA SINGDIRILISH DARAJASI**

X.U.Rizayeva

Nizomiy nomidagi TDPU "Maktabgacha ta'lim pedagogika va psixologiyasi" kafedrasi o'qituvchisi
moxira0405@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqola orqali maktabgacha ta'lim tashkilotlarining kundalik faoliyati ya'ni kun davomidagi bajaradigan ishlarini tahlilini va bolalarga milliy qadriyat tushunchalarini qanday metodlar yordamida singdirib borilayotganligini ko'rish mumkin.

Аннотация: В данной статье можно увидеть анализ повседневной деятельности дошкольных образовательных организаций, то есть выполняемой ими работы в течение дня, и с помощью каких методов происходит прививание детям понятий национальной ценности.

Annotation: In this article, you can see an analysis of the daily activities of preschool educational organizations, that is, the work they do during the day, and by what methods the concepts of national value are instilled in children.

Kalit so'zlar: frontal, qadriyat, milliy, rivojlanish markazlari, faoliyat, ta'lim, dastur, ta'limiy faoliyat, ta'lim-tarbiya, rivojlantiruvchi muhit, ta'lim sifati, mazmun, rivojlanish.

Ключевые слова: фронтальный, ценностный, Национальный, центры развития, деятельность, образование, программа, образовательная деятельность, образование, развивающая среда, качество образования, содержание, развитие.

Keywords: frontal, value, national, development centers, activity, education, program, educational activity, education, developing environment, quality of education, content, development.

"Ilk qadam" davlat o'quv dasturida o'quv-tarbiyaviy faoliyat guruhning kundalik ish tartibiga tayanadi va unda pedagog tomonidan rejulashtirilgan kundalik harakatlar aks ettiriladi. Bolalar o'yinlari, bo'sh vaqt va o'quv-tarbiyaviy faoliyat turlari navbatma-navbat amalga oshiriladi. Guruhda tashkil etilgan rivojlantiruvchi muhitning asosiy mazmuni madaniy-tarixiy qadriyatlar, milliy va mintaqaviy an'analar, tabiat, iqlimdan kelib chiquvchi xususiyatlarga boy bo'lishi, bolada birlamchi dunyoqarash asoslarini shakllantirish, bolaning muvaffaqiyatli ijtimoiy moslashuviga yordam berishi lozimligi bilan belgilangan.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining kundalik faoliyati ya'ni kun davomidagi bajaradigan ishlarini tahlil qiladigan bo'lsak bolalarga milliy qadriyatning qaysi usul va uslublar bilan singdirib borilayotganligini ko'ramiz.

Ertalabki soatlar: Tarbiyachi tomonidan har bir bolani kulib kutib olish, unga iliq munosabatda bo'lish, do'stlari bilan birgalikda o'yinga chorlash, turli mavzulardagi

suhbatlar olib boriladiki, ular asosida bolalarda tevarak atrofdagi insonlar, predmetlar, tabiat xodisalariga, yashayotgan xududidagi tabiatga bo'lgan mehrlari o'stiriladi.

Frontal mashg'ulotlarda: "Ilk qadam" davlat o'quv dasturida mashg'ulot soatlari berilgan bo'lsada, xar bir soatga aynan alohida mavzular berilmagan. Frontal, ya'ni umumiy guruh bilan ishlash jarayonida mavzular rivojlanish markazlari uchun berilgan hafta mavzularidan kelib chiqib olinadi. Mavzularni tanlash tarbiyachilarining o'zlariga ijodiy yondoshishga qoldirilgan. Bu bilan har bir maktabgacha ta'lif tashkiloti o'zining ishchi dasturini yaratishi belgilangan. Ishchi dasturlarni yaratishga qo'yilgan talblarning biri bu o'z xududidagi milliy qadriyatlar, milliy boyliklar, tarixiy obidalar, buyuk insonlar bilan tanishtirishdir. Demak frontal mashg'ulotlarga olinadigan mavzularda ham bolalarda milliy qadriyat tushunchalarini shakllantirishga yo'naltirilgan.

Rivojlanish markazlari: ushbu rivojlanish markazlarida dasturda berilgan 9 ta oy mavzusini ochar ekanmiz, har bir oyda milliylikka, milliy tarbiya berishga chaqiruvchi turli mavzular borligini ko'ramiz. Ya'ni sentyabr oyida "O'zbekiston mening Vatanim", mavzusida oktyabr oyida "Kuz bo'yoqlari" mavzusi orqali vatanimizning tabiatini, mavsumiy o'zgarishlar, milliy boyliklari, serhosil yerlarimiz, dexqonlar mehnati bilan tanishtirish orqali ularda mehr tarbiyalansa, noyabr oyida kasblar orqali e'zoz topish haqida bolalarga tushuncha beriladi, shu bilan birga yo'l harakati qoidalarini o'rgatish orqali jamoa tartibini saqlash, kattalar mehnatiga qiziqish, bolalikdan kasblarga bo'lgan hurmat tarbiyalanadi. Dekabr oyida sog'lik, sog'lom turmush tarzi, sport musobaqlari, yangi yil archa bayramlarini tashkil etilishi, bayram ta'ssurotlari orqali, yanvar Vatan himoyachilar kuni tadbirlari orqali, qo'shni mamlakatlar, fevral oyida O'zbekistonning buyuk siymolari, mart oyida "Navro'z" bayrami orqali, may oyida "Xotira va qadrlash kuni" mavzusi orqali bolalardagi milliy qadriyat tuyg'ulari singdirib borilayotganligi ma'lum bo'ldi. Bundan tashqari "Nutq o'stirish", "Atrof-olam bilan tanishtirish", "Badiiy adabiyot" mashg'ulotlarining "Maktabgacha ta'lif standarti", "O'zbekiston Respublikasi ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari" va "Ilk qadam" davlat o'quv dasturida belgilangan hajmi va ularning qisqacha mazmuniga to'xtalib o'tmoqchimiz.

Maktabgacha ta'lif tashkilotida asosiy mashg'ulotlardan biri hisoblanmish "Nutq o'stirish" mashg'uloti ham milliy qadriyatlar orqali bolalarni vatanparvar nson qilib tarbiyalovchi asosiy omillardan biridir. Bu mashg'ulot bolaning ta'lif tashkilotiga kelgandan boshlab, to tashkilotni bitirgunicha o'qitiladi.

"Ilk qadam" davlat o'quv dasturida maktabga tayyorlov yoshidagi bolalar uchun yil davomida "Nutq o'stirish" mashg'ulotiga jami 36 soat, "Atrof-olam bilan tanishtirish" mashg'ulotiga 72 soat, "Tabiat bilan tanitirish", "Badiiy adabiyot bilan tanishtirish" mashg'ulotlariga esa 18 soatdan berilgan. Ammo davlat o'quv dasturida bu mashg'ulotlarni o'tish uchun mavzular berilmaganligini ko'rishimiz mumkin.

Biz yuqorida "Nutq o'stirish", "Atrof-olam bilan tanishtirish", "Tabiat bilan tanishtirish", "Badiiy adabiyot bilan tanishtirish" mashg'ulotlarining davlat o'quv dasturida ajratilgan soatlari bilan tanishib chiqdik.

Tanishish jarayonida davlat o'quv dasturida frontal mashg'ulotlar uchun mavzularni berilmaganligi, mavzular rivojlanish markazlarida berilganligi, berilgan bo'lsada, ularni bola ongiga etkazib berishda pedagoglar uchun uslubiy qo'llanma va tavsiyalarning etarli emasligi aniqlandi. Shu bilan birga rivojlanish markazlarida bolalarda milliy qadriyat tushunchalarini shakllantirishga hid berilgan mavzular ularda milliy qadriyatni shakllanishida etarlicha ma'lumotlar olishlariga kamlik qilayotganli ma'lum bo'ldi.

Jumladan "O'zbekiston", "Ona vatan", "Mening shahrim", "Buyuk siymolar", "Vatan himoyachilari kuni", "Milliy xunarmandchilik", "Oila" mavzulari barcha yosh guruhlarda tanishtirib boriladi, lekin kuzatuvlar shuni berdiki tarbiyachilar tomonidan mavzuni oddiyidan murakkabga qarab borishi to'liq ta'minlanmagan. Turli yosh guruhlarida faoliyat yuritayotgan tarbiyachilar tomonidan internet tarmoqlaridan olingan ma'lumotlar bir xilligi va ular soddalshtirilmay bolalarga etkazilayotganligi bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olinmayotganligidan dalolat beradi.

Navbatdagi vazifamiz ushbu mavzularni mashg'ulotlar davomida milliy qadriyatlar namunalari: ertak, maqollar, afsona, doston, masal, matallar, ya'ni xalq og'zaki ijodi orqali vatanga e'tiqodni tarbiyalashdagi ahamiyatini tahlil etishdir. Bu borada dastur va uning asosida nashr etilgan uslubiy qo'llanmalarni o'r ganar ekanmiz "Til va nutq" rivojlanish markazida maktabga tayyorlov yoshidagi bolalarini vatanga e'tiqod ruhida tarbiyalashda milliy qadriyatlarning muhim manba bo'la olishini hisobga olgan holda, milliy qadriyat ruhidagi maqollarga qanday o'r in berilgan ligiga e'tiborni qaratdik. Maktabga tayyorlov yoshdagi bolalar guruhining "Til va nutq" markazida milliy qadriyatga oid materiallar mavjud bo'lib, mavzuga doir matn va she'rlar bilan bir qatorda maqollar ham o'r in olgan. Masalan, maktabga tayyorlov guruhi rivojlanish markazida «O'zbekiston – mening Vatanim» mavzusi asosida quyidagi maqollar keltirilgan:

Vatani borning – baxti bor,
Mehnati borning taxti.

Vataning tinch – sen tinch.

Ona erving tuprog'i ona sutidek aziz.

Yoki «Oltmis gaz arqon» ertagidan so'ng shunday maqol keltirilgan:

Yurt boshiga ish tushsa er yigit hozir.

Bu maqollarning faoliyatga kiritilishining asosiy maqsadi ham maktabga tayyorlov yoshdagi bolalarini milliy qadriyatlarni namunalari bilan tanishtirish, ular orqali o'zbek xalqining donoligini ko'rsatish, hayotlari davomida to'plagan tajribalaridan ogoh etishdir. Eng asosiysi shu maqollarda ilgari surilgan milliy qadriyat g'oyalariga amal qilishni nazarda tutadi. Ko'pincha mashg'ulotda berilgan maqollar yodlash uchun mavzuning yakunida

beriladi, bunga sabab berilgan maqollar mavzuni to'ldirish uchun xizmat qilishi bilan birga, mavzuda bayon etilgan fikrlarni xulosalash uchun ham ahamiyatlidir. Masalan, yuqoridagi "Oltmis gaz arqon" ertagidan keyin keltirilgan maqolning vazifasi ham ertak mazmunini to'ldirish va xulosalash uchun ahamiyatli bo'lishi bilan birga, vatanga e'tiqod, vatanni himoya qilish uchun er yigitlarning shay turishi lozimligi haqida bolalarini ogoh etishdan iboratdir.

"Rivojlanish markazlari"dagi faoliyatlarini tahlil qilishda davom etar ekanmiz milliy qadriyatlar namunalariga suratlar, kartochkalar va audio yozuvlar, ta'limiy o'yinlarga keng o'rinn berilganligini ko'ramiz.

Maktabga tayyorlov yoshidagi bolalarni vatanga e'tiqod ruhida tarbiyalash manbalaridan yana biri bu o'zbek xalk ertaklaridir. Yuqorida aytganimizdek xalq ertaklarini tiklash, ularni mashg'ulotlarga kiritish borasida ko'plab ishlar amalga oshirilgan va ular yanada takomillashtirilib borilmoqda. Hozirgi vaqtda maktabga tayyorlov yoshidagi bolalar ruhiyati va tarbiyasiga mos juda ko'plab, kichik xajmdagi ertaklar nashrdan chiqarilgan bo'lib, ular bolalarning mashg'ulotdan tashqari vaqtlarida yoki kechki soatlarda bolaning xoxish, talablarini qondirishda o'z samarasini beradi.

Biz yuqorida maqollar tahlilida aytib o'tgan, "Oltmis gaz arqon" ertagida vatan himoyasi uchun har bir kishining mas'ulligi ta'kidlab o'tilishi bilan birga, vatan himoyasidan qochgan inson Oddiy tadbirdor kampir tomonidan qoralanadi. oddiygina kampirning tadbirdorligi tufayli butun mamlakat dushmanidan xalos bo'ladi. Ertak qo'yidagicha hikoya qilinadi: - "Qadim zamonda yurtga yov bosib kelibdi. Hammaning ishi ishda qolib, mamlakat aholisi vatan himoyasi uchun jang maydoni tomon yuguribdi. Bir kampir shaharning chekkarog'ida yolg'iz o'g'li bilan yashar ekan. Mamlakatni yov bosganidan xabar topgan kampir, shosha-pisha uyquda yotgan o'g'lini uyg'otibdi. Sergak tortgan o'g'il, vatan himoyasi uchun shoshibdi. Kampir esa bisotidagi bittagina yostig'ini olib so'ka boshlabdi. Ichidan yungini chiqarib, undan arqon yasabdi. Arqoni oltmis gazcha bo'lganida, devor orqasidan qo'shnisi qarab:

- Hay qo'shni, turing qo'chamiz. Yov yaqinlashib qoldi, -debdii.
- Kampirning fig'oni falakka chiqibdi.

-Yordan, eldan ayrilib qochgandan ko'ra, qora erga qochsak bo'lmaydimi, qo'shni! Nahotki uyalmay shu so'zni aytdingiz! Yov yaqinlashgan bo'lsa, yuring, soqolini bitta-bittalab yulaylik! - debdi va arqonni qo'ltiqlab yo'lga tushibdi. Qo'shnisining ham Ori kelib, kampir ketidan ergashibdi.

Kampir bilan qo'shni jang maydoniga etib kelishibdi. Qarasalar yov tog'ning tepasiga chiqib, shahar xalqini toshbo'ron qilayotgan ekan. Kampirning o'g'li bir cho'qqiga chiqib Olibdi. U boshqa yigitlarni ham cho'qqiga chiqarish yo'lini izlab turgan paytda, kampirning ko'zi o'g'liga tushib qolibdi. Kampirning yuragi o't bo'lib yonibdi. U qo'lidagi arqon bilan katta chinor ustiga chiqibdi. Arqonni o'g'liga qaratib otibdi. O'g'li tezda arqonni ilib olibdi va arqonnning bir uchini cho'qqiga bog'labdi. Ikkinchchi uchini qo'shnisiga uzatibdi. Kampir qo'shnisiga bor gavdasi bilan arqonga osilib turishini tayinlabdi. Ikki xotin arqonning bir

uchini erga bosib, osilib turibdi. Bir zumda pastdagi odamlar arqonga tirmashib, toqqa chiqib olibdilar. Tog‘ ustida jang qizib ketibdi. Shahar aholisi yov ustidan g‘alaba qozonibdi. Butun xalq kampirdan minnatdor bo‘libdi.”

Bu kabi ertaklar orqali maktabga tayyorlov yoshidagi bolalar o‘zbek halqining donoligiga, vatan uchun jonlarini ham ayamasliklari, vatan himoyasidan qochgan insonning qoralanishi hamda vatanni himoya qilish har bir kishining burchi ekanligidan voqif bo‘ladilar. Shu bilan birga ularda ham yuqorida fazilatlar egasi bo‘lishga hohish, istak va intilish paydo bo‘ladi. Eng muhimi bu ertakda vatanga e’tiqodli inson siymosi ulug‘lanadi.

Bugungi kunda pedagogika fanining vazifasi ham xalq og‘zaki ijodini yanada chuqurroq o‘rganish va ta’lim-tarbiya jarayonida muvaffaqiyatli qo’llashdir. Biz milliy qadriyatlarimizdan bo‘lmish xalq og‘zaki ijodi namunalarini tahlil qilar ekanmiz, ularning maktabga tayyorlov yoshidagi bolalarni vatanga e’tiqod ruhida tarbiyalashga o‘tkazadigan ta’siri benihoya katta ekanini ta’kidlab o‘tmoqchimiz.

Sharqona tarbiyada axloqning ustun turishini nazarda tutib, maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilariga ta’limiy faoliyat, mashg‘ulotlar, rivojlanish markazlari, davra suxbatlarida bilim berish kerak degan g‘oyaga asoslanib, “O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshidagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari”, 2018 yil 7 iyuldaggi 4-sonli hay’at yig‘ilishi qarori bilan tasdiqlangan va nashr qilish uchun tavsiya etilgan “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi, “Maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’limiy jarayonni mavzuli rejalashtirish” qo’llanmasi chop etildi, bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 2021 yil 26 martdagagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘grisida”gi PQ-5040-son qarori 6-ilovasida maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari va pedagog xodimlari orasida “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini yanada oshirish” maqsadida “Milliy davlatimiz tarixi, buyuk ajdodlarimizning boy ma’naviy merosini o‘rganish bo‘yicha, ularning insonparvarlik g‘oyalarini hayotga keng tadbiq etish” yuzasidan qo’shma dasturlar, “yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqish, “Vatan taraqqiyotiga mening hissam” loyihasini amalga oshirish choralarini ko‘rish belgilab berildi. Respublikamizning barcha maktabgacha ta’lim tashkilotlarida “Ma’naviyat burchagi”, “Milliy qadriyat burchagi” tashkil etilib, ularda bolalarni milliy qadriyatga chaqiruvchi suratlar, kitoblar, eksponatlar, xalqimizga xos bo‘lgan kompozisiyalar bilan jihozlamoqdalar.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari ta’lim dasturida ko‘rsatib o‘tilgan vatanga oid mavzular, ularning mashg‘ulotlarda berilishi, vatanga e’tiqodni tarbiyalashga xizmat qiluvchi manbalar xususida to‘xtalar ekanmiz, olib borilgan tahlillarimizdan shu narsa ayon bo‘lmoqdaki, dastur va uslubiy qo’llanmalarda ko‘rsatilgan “Maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini mavzuli rejalashtirish” qo’llanmasida, O‘zbekiston bilan tanishtirish mavzulari o‘quv yili davomida berilgan bo‘lib bu «Mening jonajon O‘zbekistonim», «Mening shahrim, mening mahallam», «Men va mening oilam», «Vatan hmoyachilari kuni», «O‘zbekistonning buyuk siymolari» mavzulardan iborat. Mavzularda vatan, milliy qadriyat, vatanni sevmoq va boshqa tushunchalarning qisqacha maqsadi

berilgan. Ammo pedagoglarning salohiyatini inobatga olgan holda ko'rsak ushbu mavzular bola ongiga to'laqonli etkazib berilmayotganligini ko'rishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sh.M.Mirziyoev "Buyuk kelajagimizni mard va Olijanob xalqimiz bilan birga quramiz". – T., O'zbekiston, 2017.-488b.
2. Sh.M.Mirziyoev "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz". – T., O'zbekiston, 2016.-56b.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 10 iyundagi "Yoshlarni milliy qadriyat ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 369-son qarori
4. O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2021 yil 26 martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5040-son qarori
5. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. -T.:O'zbekiston, 1998-47 b.
6. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: 1998, 20-29-b.
7. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yohud axloq.-T.: Pedagog, 1992.-160 b.
8. Abdullaev M.A. Madaniyat asoslari. - Farg'ona: 1998.- 179 b.
9. Abdullaev M.A. Milliy istiqlol va ma'rifat muammolar. -T.: Fan, 1992.- 62 b.
10. Abdullaev K., Yusupov M., Rahmonbekova S. Odobnama. (2-sinf mashg'ulotligi).- T.: O'zbekiston, 2006.
11. Abdullajonova D. Milliy tarixiy xotira: mohiyat va talqin. // Jamiyat va boshqaruv.- 2004.- №4.-49-50 betlar.
12. Aliev A. Ma'naviyat, qadriyat va badiyat: (Vatan fidoiyatlari).-T.: Akademiya, 2000.- 630 b.
13. Tuychieva. T. O'zbek ma'naviy qadriyatlari tizimida urf-odat va an'analarining o'rni. PFN ilm. dar. Olish uchun yozil.diss. Nizomiy nomidagi TDPU.- T., 2000.- 73 b.
14. To'lenov J. Qadriyatlars falsafasi.- T.: O'zbekiston, 1998.- 335 b.
15. Umar Xayyom. Navro'znomma.- T.: Mehnat, 1990.- 77 b.
16. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi – 2022-yil